



O'QUVCHILARNI KRATIV FIKRLASHGA YO'NALTIRISH

Dexqonova Gulnoza Obidjonovna

Andijon viloyati Izboskan tumani

14-umumiy o'rta ta'lim maktabi Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim ko'nikma bo'lib, bu ko'nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o'zgarayotganligi haqida, Kreativ fikrlash bilim va tajribaga asoslangan haqiqiy kompetensiya bo'lib, insonlarning keskin va murakkab vaziyatlarda kutilgan natijalarga erishishga sharoit yaratishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: fikrlash, tajriba, ijodiylik, moddiy, ma'naviy, yondashish, bog'liqlik, ijod, vaziyat, muammo.

Kreativlik — shaxsning muammoli vaziyatlardan tafakkuri orqali, takrorlanmas yo'l bilan chiqib ketish, unga ijodiylik bilan yondasha olish qobiliyati hisoblanadi. Kreativlik tushunchasi (lot., ing. «create» – yaratish, «creative» yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilganda ijod ma'nosini anglatadi. Haqiqattan esa yangi, original (o'ziga xos) yanada sayqallangan moddiy va ma'naviy bog'liqliklarni yaratishdir. Kreativlikni ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligiga uning fikridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'rif berish mumkin.

Kreativ fikrlash - bu qimmatli va asl g'oyalarni yaratishga olib keladigan fikrlash yo'nalishidir. Barcha insonlar ijodiy fikrlash hamda "kundalik" ijodkorlik (kundalik muammolarga nostandart tarzda yechim topish) bilan shug'ullanishlari mumkin. Ijodiy fikrlash nafaqat ijodiy asarlarni yaratish yoki san'at bilan bog'liq tasavvur etish vaziyatlarida, balki muammolarni yoki ijtimoiy masalalarni hal qilish kabi boshqa sohalarda funksional bo'lgan vazifalarda ham qo'llanilishi mumkin. PISA baholash dasturi doirasida o'quvchilarning turli xil va o'ziga xos g'oyalarni yaratish qobiliyati, shuningdek, turli vaziyatlarda yoki "sohalarda" g'oyalarni baholashi va takomillashtirishi o'rganiladi. Baholash to'rtta sohani o'z ichiga oladi: yozma ifoda, vizual ifoda, ijtimoiy muammolarni hal qilish va ilmiy muammolarni hal qilish. Ushbu sohalarning har birida o'quvchilar tomonidan bitta to'g'ri javobi bo'lmagan ochiq topshiriqlarni bajaradilar. Ulardan alohida bir nechta javoblarni taqdim etishlari yoki oddiy bo'lmagan javob yaratishlari so'raladi. Ushbu javoblar ijodiy matn yoki vizual tasvir shaklida muammoning yechimi bo'lishi mumkin. Dunyoning turli mintaqalarida kreativ tushinchalar insoniyat madaniyatining ravnaq topishiga, tabiiy, falsafa san'at va gumanitar fanlarning rivojlanishiga asos bo'ldi. Kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy fikrlashdan farq qiladi. Kreativ fikrlash bilim va tajribaga asoslangan haqiqiy kompetensiya bo'lib, insonlarning keskin va murakkab vaziyatlarda kutilgan natijalarga erishishga sharoit yaratadi. Ta'limning vazifasi o'quvchilarni kelajakda muvaffaqiyatga erishishlari uchun zaruriy kompetensiyalar bilan ta'minlashdan iborat. Bular sababli ular



globallashuv jarayonida tez o'zgarib borayotgan, savodxonlik va raqamlash ilgari surilgan va hozirgi zamon talablariga ega moslashuvchan ishchilarni dunyoga moslashishga yordam beradi. Kreativ fikrlashni o'quvchi yoshlar egallashi natijasida ularda dolzarb muammolarni yechish uchun yangi texnologiyalardan foydalanib, hali yaratilmagan sektorlarda ishlash, shu qatorda mashina bajara olmaydigan ishlarni bajarish va global muammolarni yechish qobiliyatlari rivojlanadi. Maktablarda ham o'quvchilarni kreativ fikrlashga bo'lgan ehtiyoji maktab bozori talabidan kelib chiqqan holda ortmoqda. Maktablarning jamiyat hayotidagi ahamiyati shundan iboratki: o'quvchilarni jamiyatning bir qismi ekanligini his qilgan holda, jamiyat ravnaqi uchun o'z hissalarini qo'shish va uning oldidagi burchlarini bajarish kabi tuyg'ularni ularda oshirishdir. Xalqaro tadqiqotlar esa o'quvchilarda kreativ fikrlashini oshirish orqali ularning, tajribalar, hodisalar va shu qatorda vaziyatlarni yangicha uslubda yondashishini ta'minlaydi, bilim olishiga yordam beradi. Kreativ yondashuv va yutuqlar dunyo bo'ylab fan va texnologiyadan tortib, falsafa, san'at va ijtimoiy fanlar kabi turli sohalarda insoniyat tamaddunini ilgari surgan. Kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy g'oyalar berishdan kattaroq narsadir. U insonga ba'zan murakkab sharoitlarda, yanada yaxshiroq natijaga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribaga asoslangan real ko'nikmadir. Butun dunyoda jamiyatlar va tashkilotlar muammolarni hal etishda innovatsion bilim va yaratuvchanlikka tobora ehtiyoj sezmoqda, bu esa, o'z navbatida, innovatsiya va kreativ fikrlash ahamiyatini

yanada kuchaytirmoqda. Kreativ fikrlash ta'siri butun jamiyatga sezilarli innovatsiya turlarining ortida turishi rost, lekin u ayni damda universal va tenglashtiruvchi xususiyatga ega fenomen hamdir, ya'ni har qanday sh axs, u yoki bu darajada, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega.

Kreativ fikrlashda ta'limning asosiy vazifasi o'quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishdir. Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim ko'nikma bo'lib, bu ko'nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o'zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari yangilanayotgan davrga xos ko'nikmalarga ega kadrlarni talab etayotgan makonga moslashishga ko'maklashadi. Umuman olganda, bugungi o'quvchi kelajakda hozir hatto mavjud bo'lmagan sohalarda ishlashi, yangi muammolarni yangi ko'nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi. Maktabda kreativ fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati faqatgina mehnat bozori bilan cheklanmaydi. Maktab yoshlar uchun o'z qobiliyat va ko'nikmalarini, shu jumladan ijodiy iste'dodlarini kashf etishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, kreativ fikrlash o'quvchilarning ta'lim olishini hodisalar, tajribalar va xatti-harakatlarni yangicha va shaxsan mazmunli usulda talqin etish orqali qo'llab quvvatlaydi.



ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. boboyeva z. a., mo'minova d. b. q. talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari //oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – т. 2. – №. 10-2. – с. 221-233.

2. mohinur d. kreativlik yani ijodkorlik va bu borasida nazariy qarashlar //ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – с. 63-65.

3. sherqulovich s. b., xayrullayevna x. i. maktabgacha ta'lim tashkilotida metodik xizmat samaradorlikni oshirishda pedagogik shart sharoitlar //journal of new century innovations. – 2022. – т. 16. – №. 1. – с. 38-41.